

O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI VA YANGI SO'ZLARNING PAYDO BO'LISHI

Omonova Marjona

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15163864>

Annotatsiya. Mazkur maqolaada o'zbek tilida so'z yasash jarayonlari va yangi leksik birliklarning shakllanishi lingvistik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Shuningdek, globallashuv, ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti natijasida yuzaga kelayotgan yangi so'zlarning lingvistik xususiyatlari, ularning o'zlashuvi va normativ leksikaga integratsiyalashuvi muhokama qilinadi.

Maqolaada chet tillaridan kirib kelayotgan neologizmlar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy o'zbek tilshunoslarining qarashlari va misollar asosida mavzu keng tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: O'zbek tili, so'z yasalishi, affiksatsiya, kompozitsiya, reduplikatsiya, qisqartirish (abbreviatsiya), neologizmlar, o'zlashma so'zlar, lingvistik o'zgarishlar, leksik birliklar, globallashuv, texnologik taraqqiyot.

WORD FORMATION AND THE EMERGENCE OF NEW WORDS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract. This article analyzes the processes of word formation and the formation of new lexical units in the Uzbek language from a linguistic point of view. It also discusses the linguistic characteristics of new words arising as a result of globalization, the development of science and technology, their assimilation and integration into the normative lexicon. The article pays special attention to the issues of neologisms coming from foreign languages and the creation of their equivalents in the Uzbek language, and studies them from the point of view of modern linguistics based on a scientific-analytical approach. In the course of the research, the topic is extensively analyzed based on the views and examples of modern Uzbek linguists.

Keywords: Uzbek language, word formation, affixation, composition, reduplication, abbreviation, neologisms, borrowed words, linguistic changes, lexical units, globalization, technological progress.

СЛОВООБРАЗОВАНИЕ И ПОЯВЛЕНИЕ НОВЫХ СЛОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В статье анализируются процессы словообразования и образования новых лексических единиц в узбекском языке с лингвистической точки зрения.

Рассматриваются также лингвистические особенности новых слов, появляющихся в результате глобализации и научно-технического прогресса, их ассимиляция и включение в нормативный лексикон.

В статье особое внимание уделяется вопросам неологизмов иноязычного происхождения и созданию их эквивалентов в узбекском языке, а также их изучению с позиций современной лингвистики на основе научно-аналитического подхода. В процессе исследования тема подробно анализируется на основе взглядов и примеров современных узбекских лингвистов.

Ключевые слова: узбекский язык, словообразование, аффиксация, словосложение, редупликация, аббревиатура, неологизмы, заимствованные слова, языковые изменения, лексические единицы, глобализация, технический прогресс.

Ma'lumki, dunyo tillari orasida sof tilning o'zi yo'q. Tilning sofliги uning o'z til so'zlari hisobiga yashashi bilan belgilanmaydi. O'zbek tili leksik qatlami taraqqiyotini ham jamiyatdagi muhim o'zgarishlarni hisobga olgan holda ma'lum bir davr bosqichlari asosida o'rganish mumkin. Turkiy til sifatida yuritilgan o'zbek tili qadimdanoq O'rta Osiyo hududida bir necha asr mobaynida forsiy (forstojik) til bilan bir qatorda iste'molda bo'ldi.

O'zbek tilshunosligida so'z yasalishi turli olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, bu borada A. Madvaliyev (1981), Sh. Rahmatullayev (1978), G'. Abdurahmonov (1992), N. Mahmudov (2008) kabi tilshunoslar muhim tadqiqotlar olib borgan.



Hozirgi o'zbek tilida yasama so'zlar, asosan, affikslar yordamida hosil qilinadi, ya'ni morfemaning bir turi so'z yasash uchun xizmat qiladi. Har qanday yasama so'zning tarkibi So'z yasalishi asosi va so'z yasovchidan iborat bo'ladi: huquqshunos (huquq – so'z yasalishi asosi, shunos – so'z yasovchi), tekislamoq (tekis – so'z yasalishi asosi, la – so'z yasovchi).

So'z yasalishi asosi yasama so'z bo'lishi ham mumkin: bilimli (bilim – so'z yasalishi asosi, li – so'z yasovchi).

O'zbek tilida faqat mustaqil so'zlardan, ularning ham ot, sifat, fe'l turkumiga oid so'zlardan yangi yangi so'zlar yasaladi. Tilga kirib kelgan yangi so'zlar haqida **L.P. Krisin** o'zlashmalarni "turli elementlarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish jarayoni deb ataydi"

XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan ulkan o'zgarishlar, texnik taraqqiyot, axborotlashtirish asri sifatida tarixda qolishi e'tirof etilmoqda. Ayni paytda qisqa muddat davomida yangiliklarning dunyo bo'ylab ommalashishi, jamiyatdagi shunday yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj har bir til leksik tarkibining ma'lum bir jihatdan o'zgarishiga olib kelmoqda.

Bugungi kun neologizmlarning kirib kelishi, ularni omma tomonidan iste'molda bo'lishi tilimiz lug'atlarida aks etishini kutayotgani yo'q. Zamonaviy texnika sohasidagi xalqaro bog'liqlik va yaqinlik tilimizda ko'plab shunday tushunchalarni o'z so'zlarimiz bilan ifodalashga o'rin qoldirmayapti. Ba'zi bir o'zlashma so'zlarning ma'nolari lug'atlarda ham qayd etilmagan (flesh, koka-kola). Bugungi kunda zamonaviy texnika so'zlari dunyo bo'ylab baynalmilal soha so'zlari darajasiga ko'tarilib bormoqda. Kundalik so'zlashuvda ishlatilayotgan va qo'llanilishi faol bo'lgan ayrim leksemalarning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan joy olmaganini kuzatish mumkin. Masalan, *imij, koka-kola, minimarket, gipermarket, chizburger, xot-dog, chipsi, netbuk, blutus, sensor, flesh xotira, vay-fay, planshet, internet* kabi ko'plab leksemalar ham izohli lug'atimizdan joy olishi zarur. Yaqinda tilimizga kirib kelgan Reels (rilz) so'zi ingliz tilidan (reel – video tasmasi) so'zlasha yotgan so'z. Ma'nosi: Instagram va TikTok kabi platformalardagi qisqa videolar. O'zbek tilida "qisqa video" yoki "lavha" deb izohlash mumkin, ammo "rilz" shaklida ishlatilishi keng tarqalmoqda. Startap (startup) Kelib chiqishi: Ingliz tilidan (start – boshlash, up – yuqoriga) Ma'nosi: Yangi innovatsion biznes loyihasi, odatda kichik hajmda boshlangan biznes.: O'zbek tilida "yangi biznes", "innovatsion loyiha" sifatida tushuntirilsa-da, "startap" atamasi qo'llaniladi.

Tilda yangi lug'aviy qatlam - neologizmlar tashqi (ekstralingvistik) va ichki (lisoniy) omillar asosida vujudga keladi. Lisoniy omillar (lingvistik faktorlar) - tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

A.To'raxo'jayeva mustaqillik davri o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyotini o'rganar ekan, tilning ichki imkoniyatlari sifatida so'z semik tuzilishidagi u yoki bu semani faollashtirish, leksema sememasini muayyan tushunchaga ixtisoslashtirish, semema mundarijasini yangi sema bilan boyitish kabi qator usullardan foydalanilganini yozadi. Taraqqiy etgan sohada esa neologik tushuncha va bularni nomlovchi yangi so'zlar guruhi shakllanadi.

O'zbek tilshunosligida neologizmlar, o'zlashma so'zlar bo'yicha U.Tursunov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov, N.Mamatov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov kabi yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlari, ko'plab maqolalari yuzaga kelgan.

Eng muhimi, tilimiz lug'aviy qatlamidan o'rin olayotgan neologizmlar, xususan, termin-neologizmlarni to'plash, ularning har biri uchun alohida va umumiy izohli lug'atlar yaratish, o'zlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan shug'ullanish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

O'zlashma neologizmlarning tilda paydo bo'lishi va yo'qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug'atlardan joy olganligida namoyon bo'ladi. Agar neologizmlar jamiyatda faol qo'llanilayotgan bo'lsa, bu o'zlashma neologizmlar lingvistika va lug'atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. Tilda o'zlashma neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi: o'zgaruvchan – yangi ma'noli, birgina madaniyat vakillari tomonidan tor ma'noda qo'llanilgan o'zlashma neologizmlardir; tarqalgan – jamiyat tomonidan ishlatiladigan, ammo hali lingvistik jihatdan qabul qilinmagan o'zlashma neologizmlar; turg'un– barcha taniydigan, foydalanadigan va davomiylikga ega o'zlashma neologizmlar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til jamiyat boyligidir. Insonlarning nutqiy faoliyati davomida va jadallik bilan rivojlanib borayotgan ommaviy axborot vositalari yordamida tilga yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi neologizmlar ham kirib keladi. Bunday hodisa hech bir tilni chetlab o'tmaydi va bu ijobiy holat hisoblanadi. Chunki til hamisha o'sib borishi, o'zining so'zlashuvchilarini eng so'nggi yangilik va axborotlar bilan ta'minlashga xizmat qilishi lozim. Shunday qilib, o'zbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz bo'lib qolgan tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning iste'moldan chiqib ketishi, yangi paydo bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning esa kirib kelishi hisobiga doimo o'zgarib, rivojlanib, boyib boradi.

REFERENCES

1. Jo'rayev N. So'z yasalishi va so'z shakllanishi. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2002.
Mengliyev B. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent: Akademnashr, 2011.
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
4. Hodjaeva G. B. "Тил нормаси ва ўзбек тилига герман тилларидан кириб келган сўзларнинг лексикографик кодификацияси".
5. To'raxo'jayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: Filol.fan.nom.diss,...avtoref. – Toshkent.:2012.Tursunov
6. U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi O'zbek adabiy tili.T.,1992